

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

## “YUQORI TO‘POLANG” MILLIY TABIAT BOG‘IDA TARQALGAN ENDEM VA SUBENDEM TURLARI ADABIYOTLAR SHARXI

**Choriyev Bobur O‘rol o‘g‘li**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti magistratura talabasi

E-mail: [boburchoriyev465@gmail.com](mailto:boburchoriyev465@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada „Yuqori to‘polang“ milliy tabiat bog‘ida tarqalgan endem va subendem o‘simliklarining adabiyotlar sharxi, tarqalish areallari, qizil kitobdagi maqomi haqida ma‘lumotlar berilgan.*

**Annotation:** *This article provides information on the status of endem and subendem plants distributed in the „Upper tupalang“ National Nature Park as literature deer, dispersal areals, Red Book.*

**Аннотация:** *В этой статье „Юқори тупаланг“ даны сведения о статусе эндемичных и подэндемичных растений, распространенных в национальном природном парке обзор литературы, ареалы распространения, Красная книга.*

**Kalit so‘zlar:** *Surkhondaryo, to‘polang, endem, subendem, flora.*

**Key words:** *Surkhandarya, tupalang, endem, subendem, flora.*

**Ключевые слова:** *Сурхандарё, тупаланг, эндем, субендем, флора.*

O‘zbekistonda tashkil qilingan qo‘riqxonalar, buyutmaxonalar, pitomniklar va milliy tabiat bog‘larida turlarining tarqalishi, uchrash manzillari, identifikatsiyasi, tavsifi, morfologik, biologik va ekologik xususiyatlari hamda endem turlarni turlarini muhofaza qilishga doir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar floralarining taksonomik tarkibini aniqlash, floraning zamonaviy konspektini tuzish va muhofazaga muhtoj turlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlari turli mamlakatlaridagi botanik olimlar tomonidan olib borilgan, O‘zbekistonda shu kabi tadqiqotlar K.Sh. Tojibayev (2002, 2010), A.R. Batoshov (2016), F.I. Karimov (2016), O.T. Turginov (2017), U.H. Qodirov (2020) va boshqalar tomonidan olib borilgan. Sangardak va To‘palang havzalarining o‘simliklari to‘g‘risidagi asosiy ma‘lumotlar esa I.I. Malsev (329 tur dorivor) va boshqa olimlar tadqiqotlarida keltirilgan. R.V. Kamelin tomonidan keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, To‘palang daryosi havzasida 1500 dan ortiq tur tarqalganligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. bo‘lib, shulardan 120 turi daraxt va butalarga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda „Yuqori to‘polang“ milliy tabiat bog‘i xududida inspektorlar va ilmiy hodimlar tomonidan doimiy tarzda nazorat ishlari amalga oshirilib borilmoqda va nazariy va amaliy izlanishlar natijasida endem turlar ro‘yxati tuzildi va ularning adabiyotlar sharxi keltirib o‘tildi.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

*Acantholimon annae* Lincz. (Акантолимон Анны; **Anna kirpio'ti**)

In Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Ac. Sc. URSS. 21 (1961) 491.-А. Анны. O'zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 2. Hisor tog'idagi kamyob endemik tur. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasi, To'palang daryosi havzasida tarqalgan.

*Bergenia hissarica* Boriss. (Бадан гиссарский; **Hisor badani**)

First published in Bot. Mater. Gerb. Bot. Inst. Komarova Akad. Nauk S.S.S.R. 16: 98 (1954). O'zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 2. Hisor tizmasiga xos kamyob, relik, endemik o'simlik. Tarqalishi: Surxon-daryo viloyati: Hisor tizmasida To'palang daryosi havzasi (Tamshush)da, Mush va Hurvatan qishloqlari oralig'ida, Shotrut daryosining To'palang daryosiga quyilish yerida tarqalgan.

*Cephalopodium hissaricum* Pimenov. (Головоног гиссарский; **Hisor sarpoyasi**)

First published in Opred. Rast. Sred. Azii 7: 374 (1983). O'zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 1. Hisor tizmasidagi kamyob endemik o'simlik. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasining janubiy yonbag'irlari (To'palang daryosi havzasi)da tarqalgan.

*Jurinea sangardensis* Iljin. (Наголоватка сангардакская; **Sangardak yurineyasi**)

Soc. Turk. 2 (1925) 25, tab. 7.-J. Pjataevae Iljin in Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Ac. Sc. URSS. 20 (1960) 348, fig. 3.- J. serpenticaulis Iljin in Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Ac. Sc. URSS. 21 (1961) 384, fig. 3- Н. сангардакская. O'zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 1. Hisor tizmasidagi juda kamyob endemik o'simlik. Tarqalishi: Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari: Hisor tizmasidagi Qizilsuv, Sangardak va To'palang daryolari havzalarida hamda Boysun tog'larida tarqalgan.

*Silene michelsonii* Preobr. (Смолевка Михельсона; **Mixelson zo'rchasi**)

First published in Izv. Imp. Bot. Sada Petra Velikago 19: 13 (1919). O'zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 1. Janubi-g'arbiy Pomir-Oloydagi juda kamyob endemik tur. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasida tarqalgan.

*Sphaeroscadium denaense* (Schischk.) Pimenov et Kljuykov. (Шарозонтичник денауский. **Denov jufturug'i**)

First published in Bot. Zhurn. (Moscow & Leningrad) 66: 480 (1981). O'zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 1. Janubi-g'arbiy Pomir-Oloydagi yo'qolish arafasida turgan kamyob endemik relik o'simlik. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasidagi Sangardak daryosi vodiysi (Nilu qishlog'idan Xondiza daryosining quyi oqimigacha) va To'palang daryosining o'rta oqimida tarqalgan.

### **Subendem turlar**

*Acantholimon vvedenskyi* Lincz. (Акантолимон Введенского. **Vvedenskiy kirpio'ti**) In Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Ac. Sc. URSS. 21 (1961) 486. – А. Введенского.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

*Allium sordidiflorum* Vved. (Лук грязноцветный; **Xunukrang piyoz**)

Bot. Mater. Gerb. Bot. Inst. Komarova Akad. Nauk S.S.S.R. 9: 242 (1946).

*Astragalus bucharicus* Regel. (Астрагал бухарский; **Buxoro astragali**)

Trudy Imp. S.-Peterburgsk. Bot. Sada ix. (1886) 605. ). O‘zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 2. Janubi-g‘arbiy Pomir-Oloyda tarqalgan kamyob endemik o‘simlik. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Ko‘hitang va Hisor tizmalarida (Xo‘jagurgur-Ota, Cho‘lbayir, G‘ozimoylik, Oqboshtog‘,) tarqalgan.

*Astragalus pseudanthylloides* Gontsch. (Астрагал ложноязвенниковый.

**Пахмоqtukli astragal**)

Bot. Mater. Gerb. Bot. Inst. Komarova Akad. Nauk S.S.S.R. 9: 101 (1941) (1941). O‘zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 2. Hisor tizmasining g‘arbida tarqalgan kamyob endemik o‘simlik. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasining g‘arbiy tarmoqlarida (Boysun, Ketmonchopti va Cho‘lbayir tog‘larida) tarqalgan.

*Astragalus viridiflorus* Boriss. (Астрагал зелёноцветковый; **Yashilrang astragal**)

Trudy Bot. Inst. Akad. Nauk S.S.S.R., Ser. 1, Fl. Sist. Vyssh. Rast. 3: 208 (1937).

*Cousinia vvedenskyi* Tscherneva. (Кузиния Введенского; **Vvedenskiy karragi**)

Фл. Узбек. (1956) 12 (nomen) et in Not. Syst. Herb. Inst. Bot. Ac. Sc. Uzbek. 17 (1962) 106.- К. Введенскогою Таб. XXVIII, фиг. 1. O‘zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 2. Hisor tizmasi janubi-g‘arbiy tarmoqlarining endemik o‘simligi. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Pomir-Oloyda Cho‘lbayir, Boysun tog‘larida, Hisor tizmasi janubiy yonbag‘ridagi Sangardak suv havzasida tarqalgan.

*Dionysia hissarica* Lipsky. (Дионисия гиссарская; **Xisor dioniysiyasi**)

In АНР. 18 (1900) 83; 23 (1904) 175, tab. 10.- Smoljan. In Фл. СССР. 18 (1952) 213. Д. Гиссарская. O‘zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 2. Pomir-Oloyning janubi-g‘arbidagi kichik maydonlarda saqlanib qolgan kamyob endemik o‘simlik. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasining janubiy yonbag‘irlari (Sangardak daryosining o‘rta oqimi)da tarqalgan.

*Iskandera hissarica* N.Busch. (Искандера гиссарская; **Xisor iskandareyasi**)

Fl. URSS 8: 320, 649 (1939). O‘zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 1. Hisor tizmasidagi kamyob endemik o‘simlik. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Hisor tog‘i (Qoraqo‘l, Xondiza va To‘palang daryolarining yuqori irmoqlari)da tarqalgan. Tojikis tonda ham uchraydi. *Scutellaria guttata* Nevski ex Juz. (Шлемник капельный; **Tomchi ko‘kamaron**) Bot. Mater. Gerb. Bot. Inst. Komarova Akad. Nauk S.S.S.R. 14: 429 (1951). O‘zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 2. G‘arbiy Pomir-Oloydagi kamyob endemik o‘simlik. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasi – To‘palang daryosi havzasi – Hurvatan, Zevar, Qo‘shut qishloqlari, Shatrut va Tamshush daryolarining quyilishi hamda Sangardak daryosi vohasidagi Sangardak va Bog‘cha qishloqlari atroflarida tarqalgan.

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

*Tulipa orithyoides* Vved. (Тюльпан оритиевидный; **Oq lola**)

Byull. Sredne-Aziatsk. Gosud. Univ. xxi. 150 (1935). O‘zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 1. G‘arbiy Pomir-Oloydagi yo‘qolish arafasida turgan kamyob endemik o‘simlik. Tarqalishi: Hisor tizmasi (Cho‘lbayir tog‘i, To‘palang va Obi-Zarang daryolari havzasi)da tarqalgan.

*Ungernia victoris* Vved. (Унгерния Виктора; **Viktor omonqorasi**)

Fl. URSS 4: 483 (1935). O‘zbekiston “Qizil kitobi” dagi maqomi 2. Janubi-g‘arbiy Pomir-Oloy tizmasidagi areali juda qisqarib borayotgan kamyob endemik o‘simlik. Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasida, Cho‘lbayir tog‘larida, Xonaqasuv daryosining yuqori qismlarida tarqalgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. K. Sh. Tojiboyev, N. Yu. Beshko, V. A. Rorov. “Ботанико-географическое районирование Узбекистана”. January 2016. Doi: 10.1134/S000681361610001X.
2. Главный редактор акад. Р. Р. Шредер. Редактор первого тома проф. С. Н. Кудряшев. „Флора узбекистана i” Ташкент 1941.
3. В. Т. Qo‘chqorov, F. O‘. Xasanov, K. Sh. Tojiboyev va bosh. „Qizil kitob ”I-tom. Toshkent 2019.
4. С. С. Ковалевская. “Определитель растений Средней Азии” Институт ботаники академии наук Узбекиской ССР. 1968.
5. Internet saytlari: [www.Plantarium.ru](http://www.Plantarium.ru) [www.gbif.org](http://www.gbif.org)  
[www.powo.science.kew.org](http://www.powo.science.kew.org)